| <b>Киличева Ф.Б.</b>                                                                                                         |     |
| DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARIDA DEBITORLAR VA KREDITORLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                    | 628 |
| <b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>                                                                                    |     |
| NARX BELGILASH-IQTISODIY MANFAATDORLIKNING ASOSIY OMILI VA NARXNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....                           | 635 |
| <b>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</b>                                                                                 |     |
| SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAHLIL QILISH .....        | 639 |
| <b>Normuradov Nurbek Sunatilloevich</b>                                                                                      |     |



|                                                                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA TARIF STAVKALARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI FISKAL BARQARORLIKNI KUCHAYTIRISH (OZIQ-OVQAT IMPORTI MISOLIDA).....    | 644 |
| <b>Rizayev Mirmahmud Xotamjanovich</b>                                                                                                                           |     |
| IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINING XORIJ TAJRIBASI .....                                                                                                            | 652 |
| <b>Akrom Mardiyev</b>                                                                                                                                            |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGI TAHLILI .....                                                                                                | 659 |
| <b>Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich</b>                                                                                                                         |     |
| CHARACTERISTICS OF APPLYING NEW HETEROCOMPOSITE POLYMER MATERIALS IN ENGINEERING ACTIVITIES .....                                                                | 665 |
| <b>Umida Ziyamukhamedova, Mirjalol Abdulakimov</b>                                                                                                               |     |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ «МАХАЛЛАБАЙ»: ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИЯ И ТЕОРИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ..... | 672 |
| <b>Қосимжонов Нозимжон Қозимжон ўғли</b>                                                                                                                         |     |
| EKOLOGIK AUDITNI TASHKIL ETISHDA RISKLARNI JORIY ETISH TARTIBI .....                                                                                             | 676 |
| <b>Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li</b>                                                                                                                     |     |
| CORPORATE CULTURE AND ITS ROLE IN TALENT MANAGEMENT .....                                                                                                        | 683 |
| <b>Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev</b>                                                                                                                      |     |
| SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH IMKONIYATLARI.....                                                                          | 687 |
| <b>Xazratkulov Niyoz Namazbayevich</b>                                                                                                                           |     |
| ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ХОЗЯЙСТВЕННОГО МЕХАНИЗМА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ .....                                                                        | 692 |
| <b>Воронин Сергей Александрович, Азимова Феруза Маликовна</b>                                                                                                    |     |
| ENERGETIKA LOYIHALARINI RAQAMLASHTIRISHDA TO'SIQLAR VA IMKONIYATLAR .....                                                                                        | 700 |
| <b>Tilakov Ismoiljon Usmonovich</b>                                                                                                                              |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....                                                                    | 706 |
| <b>O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li</b>                                                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTONDA RAQAMLI BOZORLARNI MONOPOLIYAGA QARSHI TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI VA TAKOMLLASHTIRISH TAKLIFLARI.....                                            | 710 |
| <b>Mingboev Asqar Qandaharovich</b>                                                                                                                              |     |
| JAHON SEMENT SANOATIDAGI TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....                                                                | 717 |
| <b>Abdujabbarov Alisher Abdullayevich</b>                                                                                                                        |     |
| KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....                                                                                      | 722 |
| <b>Mufitillayeva Safiya Qodir qizi</b>                                                                                                                           |     |
| KORXONALAR FAOLIYATINI BAHOLASHDA STATISTIK AXBOROT TIZIMINING O'RNI .....                                                                                       | 728 |
| <b>Musurmonova Mahbuba Omonovna</b>                                                                                                                              |     |
| INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ULARNING AGRAR SOHAGA TA'SIRI.....                                                                                                   | 732 |
| <b>Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li</b>                                                                                                                           |     |
| DIRECTIONS FOR EFFECTIVE ORGANIZATION OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF COSTS .....                                                                          | 736 |
| <b>Pardaeva Shakhnoza Abdinabiyevna</b>                                                                                                                          |     |
| БОРЬБА С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....                                                                      | 740 |
| <b>Арзиев Шерзод</b>                                                                                                                                             |     |
| REKREATSION TURIZM OBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGI: YALTA VA KISLOVODSK SANATORIYALARI MISOLIDA.....                                                       | 746 |
| <b>Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich</b>                                                                                                                        |     |



|                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| KORXONA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA STRATEGIK REJALASHTIRISH<br>MEZONLARI VA OMILLARINING O'RNI .....                      | 752 |
| <b>Ubaydullayev Lutfulla Xabibullayevich</b>                                                                                |     |
| ANALYSIS OF INTERACTIVE PLATFORMS THAT DEVELOP MOTIVATION .....                                                             | 757 |
| <b>Maksuda Mukhammadovna Jurayeva, Zarnigor To'liqinovna Sattorova</b>                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA KIYIM SANOATINING MARKETING TAHLILI .....                                                    | 761 |
| <b>Tuxtayeva Oydiyoy Normamatovna</b>                                                                                       |     |
| АНАЛИЗ РЕЙТИНГОВ СТРАН ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ.....                                                                | 768 |
| <b>Хожиева Назокат Давронбековна</b>                                                                                        |     |
| PILLAGA DASTLABKI ISHLOV BERISH VA SAQLASH TEXNOLOGIK JARAYONLARINING<br>XOM IPAK SIFATIGA TA'SIRI .....                    | 773 |
| <b>Qodirov Ziyodulla Abdumuxtarovich, Xakimov Mirolimjon Murodiljonovich</b>                                                |     |
| BUDJETLASHTIRISHDA SAMARADORLIK MEZONLARINI ANIQLASH .....                                                                  | 778 |
| <b>Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich</b>                                                                                    |     |
| TIJORAT BANKLARI KREDIT SIYOSATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ORQALI ISHLAB<br>CHIQAIRISHNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....  | 783 |
| <b>Abduxomidov Ikromjon Maxamadin o'g'li</b>                                                                                |     |
| YO'LLARDAGI MUZLAMALARNI ERITISHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALARNING<br>ZARARI VA UNI KAMAYTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR .....      | 790 |
| <b>Erkabayev Furkat Ilyasovich, Sattorov Farrux Quchqar o'g'li, Aminov Hamza Husanovich</b>                                 |     |
| DAVLAT AUDITI TIZIMINING YANGI RIVOJLANISH BOSQICHI: KUCHAYTIRILGAN<br>NAZORAT VA HISOBDO'RLIK, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR..... | 797 |
| <b>Himmatov Abdisamat Xalilovich</b>                                                                                        |     |
| INVESTITSIYA KO'CHMAS MULK HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY<br>VA AMALIY YONDASHUVLAR .....                              | 803 |
| <b>Maxmudov Jamshed Ashrafovich</b>                                                                                         |     |
| TIJORAT BANKLARIDA JISMONIY SHAXSLARGA VALYUTA OPERATSIYALARINI<br>KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....                     | 806 |
| <b>Umarova Lola Erkinovna</b>                                                                                               |     |
| "DIREKT-KOSTING" TIZIMI: MAZMUN, MAQSAD VA AMALIYOTDA QO'LLANILISHI.....                                                    | 812 |
| <b>Djumanov Saitmurod Alimbekovich</b>                                                                                      |     |
| TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARIDA "MENING YO'LIM" LOYIHASINING<br>INSTITUSIONAL RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....                 | 817 |
| <b>Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li</b>                                                                                  |     |



# TASHABBUSLI BUDJET JARAYONLARIDA “MENING YO‘LIM” LOYIHASINING INSTITUTIONAL RIVOJLANISH BOSQICHLARI



**Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada aholi turmush darajasini yaxshilash hamda fuqarolarni qiynab kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muammo va kamchiliklarni hal etish bo'yicha olib borilgan ishlar yoritilgan. Unda joylarda infratuzilmani yaxshilash, tizimli muammoga aylanib qolgan masalalarni bartaraf etishda davlat budjetidan ajratiladigan mablag'lar, mahalliy budjetlar hamda davlat dasturlari doirasida ajratilgan mablag'larning aholi uchun bugungi kunda eng zarur yo'nalishlarda oqilona o'zlashtirilishini ta'minlashda fuqarolarning faol ishtiroki tahlil qilingan. Shuningdek, fuqarolarning o'z takliflarini batafsil shaklda kiritishlari va tegishli tashabbuslarga ovoz berish tizimining joriy etilgani haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** tashabbusli budjet, ochiq budjet, axborot portali, davlat budjeti, mening yo'lim, ichki yo'llar, platforma.

**Abstract.** This article highlights the ongoing work on improving the living standard of the population and solving socio-economic problems and shortcomings facing citizens, the active participation of citizens in the rational use of funds allocated from the state budget to improve local infrastructure and solving problems that have become a systemic issue, funds allocated within local budgets and state programs in the most demanded areas for the population, the implementation of a voting system on relevant proposals.

**Keywords:** initiative budget, Open budget, information portal, state budget, My road, Ambassador of initiative budget.

**Аннотация.** В статье рассматривается проделанная работа по повышению уровня жизни населения и решению социально-экономических проблем и недостатков граждан, совершенствованию местной инфраструктуры и решению системных проблем, местных бюджетов и государственных программ для населения на сегодняшний день. участие граждан в рациональном развитии важнейших направлений дня, внесение их предложений (подробно) и внедрение системы голосования по актуальным предложениям.

**Ключевые слова:** инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, Мая дорога, Посол Инициативного бюджета.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi "Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 49-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan, budjet mablag'larining sarflanish jarayonida fuqarolar ishtirokini yanada oshirish hamda mamlakatimizdagi mavjud ichki yo'llar sifatini yaxshilash maqsadida 2022-yildan boshlab tuman va shahar budjetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizini "Ochiq budjet" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirish

qat'iy belgilandi. Ushbu tizim "Tashabbusli budget" jarayonlaridan farqli ravishda yiliga bir marotaba o'tkazilib kelinmoqda.

Mazkur jarayonlar bevosita "Ochiq budget" axborot portali orqali amalga oshiriladi. Portalga ichki yo'llarning joylashgan manzili (geopozitsiyasi), to'liq nomi, uzunligi, holati (asfaltlangan yoki ta'mirtalab) va boshqa zarur ma'lumotlar kiritiladi. Fuqarolar esa ichki yo'llar reestridan geoma'lumotlar asosida o'z hududidagi tegishli yo'lni tanlab, takliflarini qoldirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu tariqa, aholi ushbu platformalar orqali davlat budgetining bir qismini boshqarish jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ular ijtimoiy soha obyektlarini ta'mirlash, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, hududlar infratuzilmasini yaxshilash va obodonlashtirishga oid tashabbuslarni ilgari surish, shuningdek, o'zlarini qiynab kelayotgan muammolarni hal etish uchun zarur mablag'larni so'rash huquqiga ega bo'ldilar. Natijada ilgari surilgan va g'olib deb topilgan takliflar davlat budgeti hisobidan moliyalashtirilib, ko'plab masalalar joyida hal etilmoqda.

Ushbu natijalarga, albatta, tizimli yondashuv natijasida erishildi. 2021-yilda ilk bor ishga tushirilgan "Tashabbusli budget" jarayonida fuqarolar tomonidan 41 mingdan ortiq taklif bildirildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, fuqarolarni eng ko'p qiynayotgan masala sifatida 13 853 ta (ya'ni jami takliflarning 34 foizi) ichki yo'llarni ta'mirlash va tartibga keltirishga oid bo'lgan. G'olib deb topilgan qariyb 1 600 ta tashabbusning 400 ga yaqini aynan shu yo'nalishga tegishli bo'lgan. Mazkur yil davomida hududlarda qariyb 300 kilometr ga yaqin ichki yo'llar va piyodalar yo'laklari ta'mirlandi.

Bu esa, ushbu yo'nalishga yangicha yondashuv zarurligini, mavjud budget resurslaridan maksimal darajada samarali foydalanish hamda ularni jamoatchilik fikri asosida yo'llarni ta'mirlashga safarbar etish zaruratini ko'rsatdi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi 49-sonli "Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "Mening yo'lim" loyihasini moliyalashtirishning aniq tizimi joriy etildi.

Unga muvofiq, 2022-yildan boshlab tuman va shahar budgetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning 50 foizi "Ochiq budget" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida aniqlangan loyihalarni ta'mirlashga yo'naltirilishi qat'iy belgilandi. Ushbu tizim "Tashabbusli budget" jarayonlaridan farqli ravishda yiliga bir marotaba o'tkazilishi belgilandi. Keng jamoatchilik o'rtasida dahldorlik hissining ortib borishi esa ushbu loyihaning kichik, ammo muhim yutug'laridan biri sifatida qayd etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashabbusli budget jarayonlari so'nggi yillarda jamoatchilikni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etishning samarali vositasi sifatida keng tadqiq etilmoqda. Bartocci o'z tadqiqotida tashabbusli budget mexanizmini demokratik boshqaruvning markaziy elementi deb hisoblab, u orqali moliyaviy resurslarning taqsimoti aholining real ehtiyojlariga yaqinlashishini ta'kidlagan. Uning fikricha, fuqarolarni budget jarayonlariga jalb etish nafaqat ijtimoiy adolatni kuchaytiradi, balki infratuzilma, ayniqsa mahalliy yo'l loyihalari sifatining oshishiga ham xizmat qiladi. Milosavljević esa bibliometrik tahlil orqali tashabbusli budget bo'yicha ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilib, ularning ko'pchiligi ijtimoiy ishtirok, shaffoflik va infratuzilma rivojiga e'tibor qaratayotganini aniqlagan.

World Bank tomonidan tayyorlangan "Participatory Budgeting" nashrida tashabbusli Budgetning amaliy samarasiga alohida urg'u berilgan. Unda jamoatchilik ishtiroki orqali davlat organlariga bo'lgan ishonchning oshishi, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi va fuqarolarning hayot sifatiga bevosita ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Open Government Partnership hamda ODP tomonidan olib borilgan tahlillar esa tashabbusli budget jarayonlarida raqamli vositalarning o'rni, onlayn platformalar orqali ovoz berish tizimining samaradorligi va shaffoflikni oshirish mexanizmlarini yoritib bergan.

O'zbekiston tajribasida Qobulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar "Mening yo'lim" loyihasining jamoatchilik ishtirokiga asoslangan moliyaviy mexanizm sifatida shakllanayotganini ko'rsatgan. Muallif "bir fuqaro – bir ovoz" tamoyilining joriy etilishi mahalliy ehtiyojlarni aniq aks ettirishini, loyihalarni tanlashda fuqarolarning roli ortganini va budget mablag'larining samarali ishlatilishiga xizmat qilayotganini ta'kidlagan. Open Budget platformasi hamda Lex.uz portallaridagi ma'lumotlar esa "Mening yo'lim" loyihasining amaliy bosqichlari, ovoz berish jarayonlaridagi o'zgarishlar va mablag' ajratish hajmlarining oshgani haqida dalillar beradi.

Shunga o'xshash xalqaro tadqiqotlar ham tashabbusli Budgetning infratuzilma rivojiga ta'sirini chuqur tahlil etgan. Tsurkan, Sotskova va Aksinina Rossiya mintaqalarida o'tkazgan tadqiqotlarida jamoatchilik ishtiroki yo'l va kommunal infratuzilma rivojlanishida samarali mexanizm bo'layotganini aniqlagan. Jaramillo esa tashabbusli Budgetning mahalliy hukumatlar infratuzilmasi, ayniqsa yo'l va transport tarmoqlarining sifatiga ta'sirini statistik tahlil asosida isbotlagan. Costa o'z ishida tashabbusli budget jarayonlarini shaharsozlik va joyni shakllantirish



(placemaking) bilan bog'lab, jamoatchilik tomonidan tanlangan loyihalar shahar muhitining estetik va funksional yaxshilanishiga hissa qo'shishini ko'rsatgan.

Rahman va Tewari tomonidan o'tkazilgan "E-Participatory Budgeting" tadqiqoti esa tashabbusli budget jarayonlarida raqamli texnologiyalarning o'rni haqida muhim natijalarga ega bo'lib, onlayn platformalar yordamida ishtirokchilarning ovoz berish imkoniyatlari kengayganini va shaffoflik oshganini ta'kidlaydi. Brillantes va Sonco tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar esa submilliy darajada ishtirokchi budgetlash jarayonlarini tahlil qilib, fuqarolarning fikri asosida resurs taqsimoti amalga oshirilganda mahalliy boshqaruv sifati va ijtimoiy barqarorlik darajasi sezilarli oshishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Bartocci, Milosavljević, Qobulov, Tsurkan, Jaramillo, Costa, Rahman va Brillantes kabi olimlarning izlanishlari tashabbusli budgetning jamiyat hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqaruv samaralarini ochib beradi. Ularning ilmiy qarashlari "Mening yo'lim" loyihasini takomillashtirishda nazariy asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular tashabbusli budget orqali fuqarolik faolligini kuchaytirish, mahalliy infratuzilmani yaxshilash va davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda "Mening yo'lim" loyihasi doirasidagi tashabbusli budget jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Open Budget platformasi hamda mahalliy hokimliklar ochiq ma'lumotlar bazasidan olindi. Olingan statistik ma'lumotlar va hujjatlar qiyosiy tahlil, kontent-tahlil hamda empirik kuzatuv usullari orqali o'rganilib, natijalar umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tizim "Tashabbusli budget" jarayonlaridan farqli ravishda yiliga bir marotaba amalga oshiriladi. Jarayon davomida axborot portalida ichki yo'llarning joylashgan manzili (geopozitsiyasi), to'liq nomi, uzunligi, holati (asfaltlangan yoki ta'mirlanib) va boshqa ma'lumotlar to'liq shakllantiriladi. Fuqarolar esa ichki yo'llar reestridan geoma'lumotlar asosida tegishli manzilni tanlab, o'z takliflarini kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Axborot portalida avtomatik tarzda ta'mirlash uchun zarur o'rtacha xarajatni aniqlaydi hamda tuman (shahar) budjeti parametrlaridan kelib chiqib, har bir hududdagi ta'mirlanadigan ichki yo'llarning umumiy hajmini belgilaydi. Har bir tuman va shahar bo'yicha shakllangan loyihalar ovozlar soniga ko'ra yuqoridan pastga tartiblanadi. G'olib takliflar tuman (shahar) mahalliy budjeti parametrlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning kamida 50 foizi doirasidagi qiymatni inobatga olgan holda, avtomatik tarzda portal tomonidan aniqlanadi.

Amaldagi nizomga binoan, g'olib deb topilgan loyihalar bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ushbu tashabbusni ilgari surgan fuqarolar ishtirokida ishlab chiqiladi. Ularni amalga oshirish jarayonida tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalari buyurtmachi vazifasini bajaradi.

Mazkur tartib asosida 2022-yilning aprel oyida "Mening yo'lim" loyihasiga ilk bor start berildi. Ushbu mavsumda 9 212 ta loyiha ilgari surilib, ularni moliyalashtirish uchun 271 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Loyihalarda aks ettirilgan ichki yo'llarning umumiy uzunligi 26,7 ming kilometrni tashkil etdi.

2023-yilning 17-aprelidan 7-mayga qadar "Mening yo'lim" loyihasining yangi mavsumi o'tkazildi. Bu mavsumda respublika bo'yicha 10 317 ta loyiha shakllantirildi. Joriy yilda tuman va shahar budjetlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun jami 640 milliard so'm mablag' rejalashtirildi, shundan 312 milliard so'm — ya'ni har bir tuman yoki shahar uchun o'rtacha 3 milliard so'mdan — "Mening yo'lim" loyihasi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb ichki yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirildi.

Ma'lumot uchun, amaldagi tartibga ko'ra tuman (shahar) budjeti parametrlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning kamida 50 foizi jamoatchilik fikri asosida yo'naltirilishi belgilangan. Shu bilan birga, fuqarolar faolligini rag'batlantirish maqsadida ayrim tuman va shahar hokimliklari tomonidan ixtiyoriy ravishda "Mening yo'lim" loyihasi uchun ajratilgan mablag' miqdori 50 foizdan 100 foizgacha oshirilgani kuzatildi.

2023-yilgi ovoz berish jarayonida 5 162 ta mahalla o'z loyihalari bilan ishtirok etdi hamda ilgari surilgan takliflarga fuqarolar tomonidan respublika bo'yicha 8 million 93 ming 918 ta ovoz berildi. Natijada, mamlakat miqyosida 517 ta loyiha g'olib deb topildi. Ularni moliyalashtirish uchun 410 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Ushbu loyihalarning amalga oshirilishi natijasida 3 million 600 mingdan ortiq fuqaro o'z hududidagi muammolarning yechimiga erishdi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, Toshkent viloyati (55 ta), Qoraqalpog'iston Respublikasi (54 ta), Samarqand va Andijon viloyatlari (40 tadan) eng ko'p g'olib loyihalarga ega hududlar sifatida ajralib turadi (1-jadval).

1-jadval. 2022-2023-yilda o'tkazilgan "Mening yo'lim" loiyhasi natijalari

| Т/р  | Худуд номи                   | Жами ажратилган маблағ | "Менинг йўлим" учун йўналтирилган (млн сўм) | Жами лойиҳа сони | Жами овоз сони | Ғолиб лойиҳалар |                    |
|------|------------------------------|------------------------|---------------------------------------------|------------------|----------------|-----------------|--------------------|
|      |                              |                        |                                             |                  |                | Сони            | Тўплаган овоз сони |
| ЖАМИ |                              | 913 210                | 602 693                                     | 1 515 903        | 10 055 793     | 897             | 4 428 395          |
| 1    | Қорақалпоғистон Республикаси | 72 041                 | 51 626                                      | 123 667          | 320 814        | 85              | 170 947            |
| 2    | Андижон вилояти              | 65 815                 | 45 967                                      | 111 783          | 813 514        | 73              | 398 429            |
| 3    | Бухоро вилояти               | 61 689                 | 43 229                                      | 104 918          | 594 021        | 60              | 257 344            |
| 4    | Жиззах вилояти               | 55 108                 | 37 958                                      | 93 066           | 658 869        | 56              | 286 179            |
| 5    | Қашқадарё вилояти            | 73 022                 | 52 637                                      | 125 659          | 1 486 139      | 56              | 687 360            |
| 6    | Навоий вилояти               | 49 828                 | 26 540                                      | 76 368           | 203 563        | 56              | 77 941             |
| 7    | Наманган вилояти             | 58 978                 | 42 508                                      | 101 486          | 716 604        | 67              | 309 651            |
| 8    | Самарқанд вилояти            | 71 239                 | 49 772                                      | 121 012          | 1 227 412      | 74              | 514 009            |
| 9    | Сурхондарё вилояти           | 68 789                 | 51 327                                      | 120 116          | 964 609        | 55              | 425 167            |
| 10   | Сирдарё вилояти              | 50 731                 | 28 032                                      | 78 763           | 299 041        | 65              | 159 198            |
| 11   | Тошкент вилояти              | 92 735                 | 63 300                                      | 156 034          | 825 278        | 86              | 365 326            |
| 12   | Фарғона вилояти              | 79 614                 | 50 186                                      | 129 800          | 1 303 422      | 61              | 474 087            |
| 13   | Хоразм вилояти               | 58 594                 | 39 930                                      | 98 524           | 624 287        | 56              | 289 100            |
| 14   | Тошкент шаҳри                | 55 025                 | 19 680                                      | 74 706           | 18 220         | 47              | 13 657             |


Yo'l qurish va uning obodligini ta'minlash ezgu hamda savobli ish hisoblanadi. Chunki bu vazifa inson qadri va xalq roziligi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli, joylarda ichki yo'llarni ta'mirlash bo'yicha mavjud muammolarning fuqarolar takliflari asosida hal etilishi ularning hayotini yengillashtiradi, yo'llarni yanada sifatli, xavfsiz va manzillarning o'zaro yaqin bo'lishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 12-sentabr kuni yo'l xo'jaligi tizimini isloh qilish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda aynan shu jihatlarni ta'kidladi. So'nggi olti yil ichida mamlakatimizda yo'llarni qurish va ta'mirlash uchun ajratilayotgan mablag'lar hajmi uch baravarga oshdi. Avtomobil yo'llari qo'mitasi tizimidagi korxonalar uchun 2 mingdan ortiq maxsus texnika xarid qilindi. Ushbu texnikalar yordamida 65 ming kilometr yo'l qurildi va ta'mirlandi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda qariyb 3 mingta mahallada yo'llarga ilk bor asfalt yotqizildi, yana 2 mingta mahalladagi tuproq yo'llar shag'al qoplamaga o'tkazildi. Bu esa aholining qulay harakatlanishi, transport infratuzilmasining yaxshilanishi va hududlararo bog'liqlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari yo'l qurilishida "resurs" usulidan "hajm" usuliga o'tish taklifini qo'llab-quvvatladi. Ushbu yondashuv Xalqaro konsultant muhandislar federatsiyasi standartlariga asoslanadi. Mazkur tizimga ko'ra, maxsus sertifikatga ega muhandislar yo'l qurilishining barcha bosqichlarini nazorat qiladi hamda yakuniy sifat uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Bu o'zgarishlar yo'l sohasida mas'uliyatni oshirish, shaffoflikni ta'minlash va xalq uchun xavfsiz, bardoshli hamda zamonaviy yo'llarni barpo etish yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. 2021-2023-yillar davomida «Ochiq budget» portali orqali g'olib bo'lgan loyihalarda ichki yo'llarni ta'mirlash loyihalarining ulushi

Ichki yo'llarni qurish va ta'mirlash uchun budget mablag'lari endilikda faqat "Mening yo'lim" dasturi orqali ajratilishi belgilandi.

— Endi qayerda ichki yo'l qurish, qaysi yo'lni ta'mirlashni xalqning o'zi hal qiladi. Shunday qilsak, loyihani tanlashda ham, sifatni ta'minlashda ham ochiqlik bo'ladi, to'liq jamoatchilik nazorati o'rnatiladi, — degan edi Prezidentimiz.

Kelgusi yilda mazkur dastur uchun kamida 800 milliard so'm ajratilishi belgilangan. Bu esa o'tgan yilga nisbatan mablag'larning qariyb ikki baravarga oshishini anglatadi. Natijada o'n minglab kilometr yangi va ta'mirlangan yo'llar, obod hamda ko'rkam manzillar vujudga keladi.

Shu bilan birga, kelgusi jarayonlarga qadar "Mening yo'lim" loyihasini yanada takomillashtirish, amaldagi tartibga ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarurati paydo bo'lmoqda. Ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Loyihalarni shakllantirishda ta'mirlanadigan yo'lning eng yuqori qiymatini belgilash;

- Fuqarolar tomonidan kelib tushgan loyihalarni "Tashabbusli budget" jarayonidagi kabi saralash bosqichidan o'tkazish. Bunda "Ochiq budget" axborot portali tomonidan avtomatik tarzda aniqlash imkoniyati bo'lmagan masalalarni aniqlashtirish maqsadida, Tashabbusli budget amaliyotidagi kabi tarkibiy jihatdan mustaqil maxsus komissiya tashkil etilishi ko'zda tutiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tgan davr tahlillari shuni ko'rsatdiki, fuqarolar tomonidan eng ko'p berilgan savol va e'tirozlar loyihalarning haqiqiy qiymatini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan. Bu holat bevosita g'oliblar soniga ta'sir etadi. Shu sababli, loyihalarni ishchi komissiya tomonidan saralashdan o'tkazish va ularning qiymatini qayta aniqlashtirish kelgusida fuqarolarning noroziligiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ayrim hududlarda ajratilgan mablag'lar doirasida faqat bitta loyiha g'olib bo'lgan holatlar kuzatilmoqda. Bunga sabab — ta'mirlanadigan yo'llarning eng yuqori qiymati belgilanmaganligi. Masalan, agar 5–10 kilometr uzunlikdagi yo'l g'olib bo'lsa, mavjud barcha mablag'lar aynan shu loyihaga sarflanmoqda. Bu esa, hududdagi boshqa yo'llarning ta'mirsiz qolishiga va keyingi mavsumgacha muammolarning cho'zilishiga olib keladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ochiqlik asosida yuritilayotgan demokratik siyosat davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Bu esa ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga tizimli yechim topish imkonini beradi. Fuqarolarning o'z fuqarolik pozitsiyasidan to'laqonli foydalanishi mamlakatda olib borilayotgan siyosatning fuqarolik jamiyati bilan qay darajada uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, "Tashabbusli budget" jarayonlarini yanada rivojlantirish, fuqarolarning talab va takliflarini inobatga olgan holda ushbu tizimni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hozirgi davrning eng ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Foydalnilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 2 февралдаги “Автомобиль йўллари соҳасида очиқлик стандартларини жорий этиш ва соҳада жамоатчилик назоратини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” 49-сон Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 7 апрелдаги “Туман ва шаҳар бюджетлари маблағларини жамоатчилик фикри асосида шакллантирилган тадбирларга йўналтириш жараёнларида фуқароларнинг иштирокини янада қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги ПҚ-197-сон қарори
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 сентябрдаги ““Очиқ бюджет” ахборот портали орқали жамоатчилик фикри асосида шакланган тадбирларни молиялаштиришни янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5250-сонли Қарори
4. Milan - Participatory Budgeting. Collaborative Cities. <https://bilanciopartecipativo.comune.milano.it/>
5. Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. <https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/> A. Bartocci. The journey of participatory budgeting: a systematic literature review and future research directions. International Review of Administrative Sciences. 2023.
6. M. Milosavljević. Bibliometric Review of Participatory Budgeting: Current Trends. MDPI. 2023.
7. World Bank. Participatory Budgeting. World Bank Publication. 2018.
8. Open Government Partnership / ODP. Participatory Budgeting: An Evidence Review. 2017.
9. X.A. Qobulov. O'zbekistonda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy etilishi va rivojlanishi. CyberLeninka / OpenScience. 2023.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)